

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**«TASDIQLAYMAN»
Jizzax davlat pedagogika universiteti
rektori
Sh.S.Sharipov**

2025-yil «__» _____

**«MA’QULLANDI»
O‘zbekiston Respublikasi Oliy
ta’lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi
OAK raisi A.T.Yusupov**

2025-yil «__» _____

**13.00.02. –Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
(o‘zbek tili va adabiyoti)
ixtisosligi bo‘yicha malakaviy imtihon
DASTURI**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi
Rayosatining 2025-yil «__» _____ -sonli qarori bilan
tasdiqlangan.

JIZZAX-2025

Dastur 13.00.02. –Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (o‘zbek tili va adabiyoti) ixtisosligi bo‘yicha malakaviy imtihon topshiruvchi tadqiqotchilar uchun mo‘ljallangan.

Ushbu dastur O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Jizzax davlat pedagogika universiteti ilmiy-texnik Kengashida ko‘rib chiqilgan va OAKka tasdiqlash uchun tavsiya qilingan (2025-yil “_____” dagi _____ -sonli bayonnoma).

- Tuzuvchilar:**
1. *Qosimov U., f.f.n., prof.*
 2. *Xolboeva G.A., p.f.n., dotsent*
 3. *Atamurodva R.Q., p.f.n., dotsent*
 4. *Boltaeva B.I., f.f.d.(PhD),dotsent*

Kirish

Dastur 13.00.02 - Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (o'zbek tili va adabiyoti) ixtisosligi fanlari bo'yicha mutaxassis- talabgorning nazariy va kasbiy tayyorgarligi darajasini, ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi fanining shakllanishi va rivojlanishi tarixini, umumiy konsepsiyalari va metodologiya masalalarini, manbalarini, shu bilimlar tarmog'ining asosiy nazariy va amaliy muammolarini, mavjud materialni nechog'li bilishini, shu sohadagi ilmiy adabiyotlarni, shu jumladan, chet el davriy nashrlarini hamda ilmiy tadqiqotlarning zamonaviy usullarini qanchalik egallaganlik darajasini aniqlash doirasida tuzilgan bo'lib, unda o'qitish metodikasining umumiy masalalari bilan bir qatorda har bir fanning o'ziga xos xususiyatlarini bilish darajasini baholashni ko'zda tutib tuzilgan.

Mustaqillik yillarida pedagog kadrlarni tayyorlashning yangi tizimi ishlab chiqilib, uzluksiz ta'limda o'qitish sifati va samaradorligini bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy, ma'naviy - axloqiy tayyorgarligi belgilab berishi haqidagi qat'iy xulosaga kelindi. Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligi umumta'lim fanlari bo'yicha ta'lim mazmuni va metodikasini takomillashtirishning metodik asoslarini ishlab chiqishga oid muammolarni tadqiq etuvchi mustaqil soha bo'lib, mazkur ixtisoslik bo'yicha bajarilgan dissertatsiya ishlari Respublikamiz uzluksiz ta'lim tizimining taraqqiyotiga muayyan hissa qo'shishga qaratiladi. Ta'lim - tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligi sohasiga oid dissertatsiyalarda jamiyatning ijtimoiy-madaniy, ma'naviy-ma'rifiy jabhalardagi o'zgarishlar talablari asosida umumta'lim fanlarini o'qitish mazmuni va metodikasini rivojlantirishning ilmiy-pedagogik, metodik asoslari, davlat ta'lim standartlarini takomillashtirish metodologiyasi, fanlarni o'qitish metodikasining qadimiy-tarixiy hamda zamonaviy mazmuni, metodlari, shakllari, vositalariga bag'ishlangan ilmiy-nazariy, amaliy-metodik muammolar tadqiq etiladi.

Mazkur dastur, fan mohiyatidan kelib chiqqan holda, Ta'lim - tarbiya nazariyasi va metodikasi (o'zbek tili) hamda Ta'lim -tarbiya nazariyasi va metodikasi (o'zbek adabiyoti) nomlangan ikki tarkibiy qismga bo'lindi.

Ta'lim - tarbiya nazariyasi va metodikasi (o'zbek tili) qismida o'zbek tilini o'qitishning ilg'or yutuqlarini, darsning ilmiy-nazariy asoslarini o'rgatish, o'zbek tiliga oid dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etishning nazariy-metodik asoslarini egallash, fanni o'qitishning metodik ko'nikma va malakalarni shakllantirish, o'quvchilarni orfografik va imloviy xatosiz yozishga, adabiy til va nutq me'yorlariga rioya qilgan holda talaffuz etish va yozishga o'rgatishning samarali usullarini shakllantirish, dastur, darslik va o'quv qo'llanmalar mazmunini

tahlil qila olish, o'rganilayotgan material mazmuniga tegishli vaqt va sharoit talabiga ko'ra qo'shimcha ma'lumotlar kirita olishi, o'zbek tili mashg'ulotlarida zaruriy didaktik materiallarni tanlay va tayyorlay olish, ilmiy va metodik adabiyotlardan dars hamda darsdan tashqari mashg'ulotlar uchun zaruriy ma'lumotlarni ola bilish, til bo'limlarini o'qitishning ilmiy-didaktik va pedagogik asoslarini bilish, o'quvchilar bilimini nazorat qilish va baholash mezonlarini bilish, o'zbek tilini o'rganishning usul va yo'llarini amaliyotda qo'llay olish, uslubiy ko'rsatmalar va metodika fani yutuqlaridan doimiy xabardor bo'lish va foydalana olish yuzasidan bilim darajasini aniqlashni ko'zda tutadi.

Ta'lim –tarbiya nazariyasi va metodikasi (o'zbek adabiyoti) qismida talabgorlarning adabiyotni o'qitishning maqsad va vazifalari, o'qitishda eng qulay va zamonaviy metodlardan foydalanish, o'qitishning ilg'or yutuqlarini bilish, adabiyotga oid dars hamda darsdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etishning nazariy-metodik asoslarini bilish, adabiy asarlarni o'qitish orqali o'quvchilarning badiiy-estetik didi, mustaqil ijodiy fikrlash qobiliyati, kitobxonlik madaniyatini kamol toptirish, amaliyotdagi zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan tanishtirish, adabiyot darslarini tashkil etishda Blum taksonomiyasidan foydalanish, sinfdan tashqari o'qish va uni tashkil etish, “kompetentlik” tushunchasi va kasbiy kompetentlik sifatlarini bilish, “darslik” va “o'quv qo'llanma” tushunchalarining mazmun mohiyatini farqlay olish, adabiyot darsliklariga qo'yilgan talablarni to'g'ri tahlil qilish, adabiyot fanidan elektron darsliklar va ularni yaratish, modulli ta'lim texnologiyasi va adabiy ta'lim jarayonida modulli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish, adabiyot darsliklaridagi epizodlar tahlili va talqini, maktab darsliklaridagi g'azallarning poetik xususiyatlarini o'rganish metodlari, mumtoz asarlarni sharhlab o'rgatish metodlarini bilish, savol va topshiriqlarning o'quvchi mustaqil fikrlashini tashkil etishdagi va ijodiy tafakkurini o'stirishdagi o'rni haqidagi bilimlarini aniqlashni ko'zda tutadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi “O'zbekiston Respublikasi xalq ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-5712-son farmonlari hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 21 iyundagi “Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-289-son qarorida ta'lim sifati va samaradorligi oshirish, ta'limga ilg'or xorijiy tajribalarni

joriy etish, o'qitishning eng zamonaviy usullarini amaliyotda qo'llash, xalqaro tadqiqot dasturlarida munosib ishtirok etishga doir muhim fikr va takliflar bildirilganligi ham ta'lim - tarbiya nazariyasi va metodikasi sohasiga alohida e'tibor qaratilishi lozimligini ko'rsatadi.

Metodologik masalalar

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida uzluksiz ta'lim tizimini takomillashtirishga oid belgilangan vazifalarning mohiyati.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ 2909-son Qaroridan pedagogika sohasini rivojlantirishga oid vazifalarning tasnifi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 21 oktyabrdagi PF-5850-sonli "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqei tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonining o'zbek tili taraqqiyotidagi roli.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmoni.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 23 sentyabrdagi 637-son "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunining mazmun-mohiyati.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonining mazmun-mohiyati.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 21 iyundagi "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-289-son qarori.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning Oliy majlis qonunchilik palatalariga murojaaatnomalarining mazmun-mohiyati.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 11 maydagi "2022 — 2026 yillarda maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida" PF-134-son Farmoni

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlar uchun ming kitob" loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 28.11.2023 yildagi №PQ-380 qarori.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim sohasidagi islohotlarni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi 02.02.2024 yildagi PQ-54-son qarori

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 1 apreldagi “Ixtisoslashtirilgan maktablar tarmog‘ini kengaytirish va ularning faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” №PF-55 Farmoni.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 22 noyabrda “Ta’lim sohasida xususiy sektor ishtirokini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi №PQ-403 qarori.

1-qism. Ta’lim - tarbiya nazariyasi va metodikasi (o‘zbek tili)

Ta’lim bugungi jamiyatimizning hal qiluvchi omili sifatida. Bugungi tarixiy madaniy sharoitda ta’lim tizimini tashkil etish va yaratishning falsafiy va metodologik asoslari. Gumanitar fanlarning roli va o‘ziga xos xususiyatlari. O‘qituvchi o‘quv jarayoni va filologik ta’lim sistemasida yetakchi bo‘g‘in sifatida.

O‘zbek tili o‘quv predmetining nazariy asoslari; badiiy asarni lingvistik tahlil qilish va baholash mezonlari; ona tili o‘qitishda o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutq malakalarini o‘stirishning shakl va usullari; dars jarayoniga qo‘shimcha adabiyotlarni, yangi axborot hamda turli pedagogik texnologiyalarni jalb qila olish, metodika sohasidagi yangi pedagogik hamda axborot texnologiyalari.

O‘zbek tili bo‘yicha maktab, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari, oliy ta’limning mohiyati va prinsiplari; o‘quv qurollarining mavjudligiga qarab usullar tanlay olish; ona tili darslarida milliy mafkura va mustaqillik g‘oyasini targ‘ib qila olish, darslarni tegishli shakl va usullariga ko‘ra tashkil qilish, metodika sohasidagi yangiliklar bilan uzluksiz tanishib borish.

O‘zbek tili yuzasidan namunali dars o‘tish, turli tadbirlarni o‘tkaza olish, zamon talabidagi darslarni tashkil qila olish, shuningdek, ta’limning turli bosqichlarida o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga qarab ta’lim va tarbiyaning metod va usullarini amaliyotga tatbiq eta olish, adabiy ta’limning turli shakl va usullariga doir fan yangiliklaridan muntazam foydalana olish, fan yutuqlarini amaliyotga bevosita tatbiq etish, iktidorli talabalar bilan ularni intellektual salohiyatini yanada rivojlantirish, adabiyot sohasidagi yangiliklarni dars va sinfdan tashqari mashg‘ulotlarga jalb etish, ilmiy tadqiqot natijalarini amaliyotga tatbiq etish.

O‘zbek tili o‘qitish metodikasi fanining umumnazariy masalalari, O‘zbekistonda ona tili o‘qitish metodikasining tarixi; O‘zbek tili o‘qitish metodlari, yangi pedagogik texnologiyalar; O‘zbek tili ta’limida an’anaviy va noan’anaviy usullar; O‘zbek tili o‘qituvchisiga qo‘yiladigan talablar; Umumiy o‘rta ta’lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlariida ona tili o‘qitish kursining tarkibi va mazmuni; O‘zbek tilidan izchil kursni o‘rganish. Fonetikani

o'rganishda so'z boyligini oshirish imkoniyatlari; Leksikologiyani o'rganishda so'zning ma'no darajalari ustida ishlash; Grammatikani o'qitish metodikasi.

Talabalarning mustaqil ishi zamonaviy oliy maktab o'quv jarayoni shakllaridan biri sifatida, uning mazmuni va shakllari/turlari. Filolog talabalarning badiiy matnlarni tahlil qilish, ilmiy va tanqidiy adabiyotlarni o'rganish va talqin qilish bo'yicha mustaqil ishi, uning metodikasi, shakllari va rejalashtirish. Talabalarning joriy ishlarini tashkil etish va ularga rahbarlik qilish. Talabalar tomonidan bajarilgan mustaqil ishlarni tekshirish usullari: o'rganilgan materialni bosqichma-bosqich topshirish, o'qilgan badiiy asar yoki ilmiy adabiyot bo'yicha hisobot berish, o'qituvchining savollariga javob berish, muayyan mavzu yuzasidan suhbatlashish va boshqalar. Talabalarda badiiy matnlarni faol va professional darajada o'qish qobiliyatini, ilmiy va tanqidiy adabiyot bilan mustaqil ishlash ko'nikmasini, ilmiy g'oyalarni, fikrlarni, konsepsiyalarni, shuningdek, badiiy asarlarning turli xildagi talqinlarini tanqidiy baholash prinsiplarini shakllantirish.

2-qism. Ta'lim –tarbiya nazariyasi va metodikasi (o'zbek adabiyoti)

O'zbek adabiyoti o'quv predmetining nazariy asoslari, badiiy asarni estetik tahlil qilish va baholash mezonlari, adabiyot o'qitishda o'quvchilarning og'zaki va yozma nutq malakalarini o'stirishning shakl va usullari, dars jarayoniga qo'shimcha adabiyotlarni, yangi axborot hamda turli pedagogik texnologiyalarni jalb qila olish, metodika sohasidagi yangi pedagogik hamda axborot texnologiyalari bilish.

O'zbek adabiyoti bo'yicha maktab, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari, oliy ta'limning mohiyati va prinsiplarini o'zlashtirish; o'quv qurollarining mavjudligiga qarab usullar tanlay olish; badiiy asarni mustaqil tahlil qila bilishi; adabiyot darslarida milliy mafkura va mustaqillik g'oyasini targ'ib qila olish, darslarni tegishli shakl va usullariga ko'ra tashkil qilish, metodika sohasidagi yangiliklar bilan uzluksiz tanishib borish.

Ta'limning turli bosqichlarida mazkur fan yuzasidan namunali dars o'tish, turli tadbirlarni o'tkaza olish, zamon talabidagi darslarni tashkil qila olish, shuningdek, ta'limning turli bosqichlarida o'quvchilarning yosh xususiyatlariga qarab ta'lim va tarbiyaning metod va usullarini amaliyotga tatbiq eta olish, adabiy ta'limning turli shakl va usullariga doir fan yangiliklaridan muntazam foydalana olish, fan yutuqlarini amaliyotga bevosita tatbik etish, iqtidorli talabalar bilan ularni intellektual salohiyatini yanada rivojlantirish, adabiyot sohasidagi yangiliklarni dars va sinfdan tashqari mashg'ulotlarga jalb etish, ilmiy tadqiqot natijalarini amaliyotga tatbiq etish.

Talabgorlar adabiyot o'qitish metodikasiga doir quyidagi mavzu va muammolarni yoritib berishlari kerak: Adabiyot o'qitish metodikasi fan sifatida, adabiyot o'qitishning metodlari, metodika fanining shakllanishi va taraqqiyoti, adabiyot dasturi, darsliklar va o'quv qo'llanmalari, adabiyot o'qituvchisining o'ziga xos xususiyatlari, adabiy asarni tahlil qilish, badiiy asar matnini o'rganish, badiiy asarni tur va janr xususiyatlariga ko'ra o'rganish, epik asarlarni o'rganish, dramatik asarlar tahlili, lirik asarlarni o'rganish, ta'lim bosqichlarida adabiyot tarixi, adabiy nazariy tushunchalarni o'rganish, badiiy asar tilini o'rganish, o'quvchilarning og'zaki va yozma nutq malakalarini oshirish yo'llari, adabiyot darslarida ko'rgazmalilik va o'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish.

Adabiyotshunoslik ta'limining uch asosiy mazmuniy-mundarijaviy komponentlari: adabiyot, u haqidagi bilimlar, uni tahlil va talqin qilish usul va vositalari. Adabiyotshunoslik fanlarining professional, rivojlantiruvchi hamda gumanitar va ma'naviy-tarbiyaviy yo'nalishga ega ekanligi. Adabiyotshunoslik umumiy kurslarining o'рни, roli va tabiati. Adabiyotshunoslik predmetlari bo'yicha maxsus kurslar, ularning maqsadi, vazifalari, tematikasi – mavzusi, tuzilish prinsiplari, umumiy kurslar bilan munosabati. Adabiyotshunoslik muammolari bo'yicha maxsus seminarlar, ularning vazifalari, mazmuni, olib borish metodikasi, umumiy va maxsus kurslar bilan aloqadorligi. O'zbek shoirlari, o'zbek yozuvchilari ijodi bo'yicha seminarlar. Proseminariylar (o'zlashtirish qiyin bo'lgan mavzulardan oldingi tayyorgarlik mashg'ulotlari) talabalarda ilmiy-tadqiqot ishlari bo'yicha ko'nikmalarini rivojlantirishning dastlabki shakli sifatida.

Adabiyotshunoslik predmetlari bo'yicha o'quv mashg'ulotlarining shakllari. Adabiyotshunoslik predmeti bo'yicha ma'ruza mashg'uloti va unga qo'yiladigan talablar. Ma'ruzaga tayyorgarlik ko'rish, uning tuzilishi va uni amalga oshirish. Ma'ruza o'qish va uni o'tkazishda o'qituvchining roli. Konspektlashtirishning aniqligi, ma'ruzaning talabalarga yetib borishi, uning mazmunining talabalar tomonidan chuqur va to'liq o'zlashtirilayotganligini tekshirish usullari. Adabiyotshunoslik fanlari bo'yicha amaliy mashg'ulotlar, ularning o'ziga xosligi, maqsadi, ma'ruza kurslari bilan aloqadorligi, shakllari va ularni o'tkazish metodikasi.

Adabiyotshunoslik fanlari bo'yicha seminarlarning o'ziga xos xususiyatlari va maqsadi, ularning turlari va olib borish metodikasi. O'qituvchi va talabalarning amaliy va seminar mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rish. Unda o'qituvchining vazifalari va faoliyati. Amaliy va seminar mashg'ulotlarida talabalar bajaradigan ishlarning mazmuni, uni faollashtirish usullari, ko'rib chiqilayotgan smasalalar

bo'yicha bahs va munozaralarni tashkil etish usullari. O'tilgan amaliy va seminar mashg'ulotlarini yakunlash shakllari. Amaliy va seminar mashg'ulotlarining metodik ta'minoti.

Laboratoriya mashg'ulotlari, ularning mazmuni va olib borish metodikasi. Kollokviumlar o'quv mashg'ulotlarining shakli sifatida. Talabaning bilim darajasi va qobiliyatiga qo'yilgan talablar, baholash mezonlari. Oliy ta'lim adabiyotshunos-o'qituvchisi muvaffaqiyatli faoliyatining asoslari va omillari. Adabiyotshunoslik turkumidagi predmetlarni o'rganish uchun talabalar ishini kompyuterda tashkil etish.

Zamonaviy o'quv jarayonida talabalar ilmiy-tadqiqot ishlari rolining oshnaligi. Proseminariylar (o'zlashtirish qiyin bo'lgan mavzulardan oldingi tayyorgarlik mashg'ulotlari)da ishlash talaba ilmiy tadqiqot faoliyatining ko'nikmalari, shakllari, texnikasini egallash ilmiy etapi bosqichi sifatida. Postmetod yondashuvining alternativ yo'llarga asoslanishi. O'qitish nazariyasi va amaliyotiga metodlar asosidagi yondashuv va postmetod yondashuvning farqi. Postmetod ta'lim tamoyillari.

«13.00.02. –Ta'lim –tarbiya nazariyasi va metodikasi (o'zbek tili va adabiyoti)» kursi bo'yicha malakaviy imtihon dasturi yuzasidan o'qish uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar

a) metodologik adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – T.: O'zbekiston, 2017. – 592 b.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent, 2008.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida uzluksiz ta'lim tizimini takomillashtirishga oid belgilangan vazifalarning mohiyati.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ 2909-son Qaroridan pedagogika sohasini rivojlantirishga oid vaziflarning tasnifi.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 21 oktyabrdagi PF-5850-sonli "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonining o'zbek tili taraqqiyotidagi roli.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmoni

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 23 sentyabrdagi 637-son “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunining mazmun-mohiyati.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF–60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonining mazmun-mohiyati.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 21 iyundagi “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-289-son qarori.
10. Sh.M.Mirziyoevning Oliy majlis qonunchilik palatalariga murojaaaatnomalarining mazmun-mohiyati.

b) ilmiy adabiyotlar:

1. Azizxo‘jaeva N.N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiyalar. “Universitet”, T., 2002.
2. Zunnunov A.Z., Hotamov N., Esonov J., Ibrohimov A. Adabiyot o‘qitish metodikasi T.: «O‘qituvchi», 1992 y.
3. Ishmuxammedov R., Abdukodirov A., Pardaev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar- T.:Iste’dod. 2010 y.
4. Yo‘ldoshev J.G‘., Ta’lim yangilanish yo‘lida. T.: O‘qituvchi 2000.
5. Yo‘ldoshev B., Qurbonov T. Badiiy asar tili va uslubi masalalari. - Samarqand, 2004.
6. Yo‘ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. - T., 2007.
7. Yo‘ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. – T., 2008.
8. Yo‘ldoshev Q., Madiev O., Abdurahmonov L. «Adabiyot o‘qitish metodikasi» T.: «O‘qituvchi» 1999 y.
9. Yo‘ldoshev P.A, Rixsieva M.M. Insholardagi matniy xatolar, ularni tuzatish metodikasi. -Toshkent, 2018.
10. Mahmudov N. O‘qituvchi nutqi madaniyati. - T., 2007, 2009.
11. Mirqosimova M. O‘quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish asoslari.- Toshkent, Fan.
12. Niyozmetova R. Uzluksiz ta’lim tizimida o‘zbek adabiyotini o‘rganish metodikasi. T. “Fan”, 2007
13. Roziqov O. va b. Ona tili didaktikasi. T.Yangi asr avlodi nashriyoti, 2005.
14. To‘xliiev B. Adabiyot o‘qitish metodikasi. T.: «Yangi asr avlodi». 2006
15. To‘xliiev B., Shamsieva M., Ziyodova T. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. T.O‘zbekiston Milliy kutubxonasi. 2010.

16. G'ulomov A. va b. Ona tili o'qitish metodikasi. T.: Fan va texnologiya nashriyoti. 2012.
17. Husanboeva Q. Adabiy ta'limda mustaqil fikrlashga o'rgatish asoslari. Toshkent. «O'zimbeksentr, 2003, 48-69-betlar.
18. Husanboeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. "Barkamol fayz media", 2018. 352b

BAHOLASH MEZONLARI

Baho	Talabgorning bilim darajasi
100 - 86 "A'lo"	Talabgor berilgan savollar bo'yicha xulosa qila oladi, ijodiy fikrlay oladi. Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (o'zbek tili va o'zbek adabiyoti) bo'yicha mustaqil mushohada yurita oladi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, ixtisoslik hamda dissertatsiyasining mavzusi bo'yicha berilgan savollar mohiyatini tushunadi, biladi va unga to'laqonli javob beradi hamda to'liq tasavvurga ega deb topilganda.
85-71 "Yaxshi"	Talabgor ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (o'zbek tili va o'zbek adabiyoti) bo'yicha mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, ixtisoslik hamda dissertatsiyasining mavzusi bo'yicha berilgan savollar mohiyatini tushunadi, biladi va unga yaxshi javob beradi hamda yetarlicha tasavvurga ega deb topilganda.
70-56 "Qoniqarli"	Talabgor olgan bilimni amalda qo'llay oladi, Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (o'zbek tili va o'zbek adabiyoti) hamda dissertatsiyasining mavzusi bo'yicha berilgan savollar mohiyatini tushunadi, biladi, va unga qisman javob beradi hamda qoniqarli darajada tasavvurga ega deb topilganda.
55-0 "Qoniqarsiz"	Talabgor ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (o'zbek tili va o'zbek adabiyoti) bo'yicha dasturni o'zlashtirmagan, ushbu yo'nalish mohiyatini tushunmaydi hamda ixtisoslik bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganda.